

UO'K:167.3.1(091)

**HOZIRGI DUNYODA SSIENTIZM VA ANTISSENTIZM
TUSHUNCHASI****Xolmirzayeva Diyora Fazliddin qizi**

Namangan davlat universiteti magistranti

E-mail: kholmirzayevadiyora@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada hozirgi davr falsafasida muhim o'rin tutayotgan ikki qarama-qarshi yo'nalish — sientizm va antissientizm masalasi yoritilgan. Sientizm tarafdorlari fan va texnologiyani insoniyat taraqqiyotining yagona kuchi sifatida talqin etishsa, antissientizm tarafdorlari ilm-fanning chegaralarini tan olib, ma'naviy va axloqiy qadriyatlarning ahamiyatini ta'kidlaydi. Maqolada ushbu ikki yo'nalish o'rtasidagi farqlar, ularning tarixiy shakllanishi hamda zamonaviy jamiyatdagi ta'siri tahlil qilinadi. Tadqiqot jarayonida analitik, taqqoslash va integrativ yondashuv metodlaridan foydalanilib, ilmiy va ma'naviy qadriyatlar o'rtasidagi muvozanatni topish zarurligiga e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: Ta'lim, texnologiya, sun'iy intellekt, ssientizm, antissientizm, kommunikatsiya, mantiq, ruhiyat

Холмирзаева Диёра Фазлиддин қизи

Магистрант Наманганский государственный университет

**КОНЦЕПЦИЯ СЦИЕНТИЗМА И АНТИСЦИЕНТИЗМА В
СОВРЕМЕННОМ МИРЕ**

Аннотация: В данной статье рассматриваются два противоположных направления, занимающих важное место в современной философии — сциентизм и антисциентизм. Сторонники сциентизма рассматривают науку и технологии как единственную движущую силу прогресса человечества, тогда как приверженцы антисциентизма признают

пределы науки и подчёркивают значение духовных и нравственных ценностей. В статье анализируются различия между этими двумя направлениями, их историческое формирование и влияние на современное общество. В процессе исследования использованы аналитический, сравнительный и интегративный методы, при этом особое внимание уделено необходимости нахождения равновесия между научными и духовными ценностями.

Ключевые слова: Образование, технологии, искусственный интеллект, сциентизм, антисциентизм, коммуникация, логика, психология

Kholmirezayeva Diyora Fazliddin qizi

Master's student Namangan State University

THE CONCEPT OF SCIENTISM AND ANTI-SCIENTISM IN THE MODERN WORLD

Annotation: This article explores two opposing directions that play an important role in modern philosophy — scientism and antiscientism. Proponents of scientism interpret science and technology as the sole driving force of human progress, while supporters of antiscientism recognize the limits of science and emphasize the importance of moral and spiritual values. The article analyzes the differences between these two approaches, their historical development, and their influence on contemporary society. Analytical, comparative, and integrative methods were used in the research process, focusing on the necessity of finding a balance between scientific and spiritual values.

Key words: Education, technology, artificial intelligence, scientism, anti-scientism, communication, logic, psychology

Kirish

Bugungi kunda dunyo juda tez o'zgarayapti. Ilm-fan, texnologiyalar, internet va sun'iy intellekt hayotimizning ajralmas qismiga aylandi. Dunyo davlatlar ushbu

rivojlanish davrida ta'lim tizimiga turli yo'nalishlarda yangiliklar kiritmoqda. Bizning yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev ham "Ta'lim va tarbiyaning asosi, poydevori bu-maktab" shiori ostida maktab ta'limidan boshlab, yurtimizdagi ilm-fanning rivojiga o'z hissalarini qo'shmoqdalar. Misol uchun, 2018-yil 16-noyabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Qoraqalpog'istonga tashrifi chog'ida, Nukus shahridagi uchrashuvda bir necha hududlarda Prezident maktablarini tashkil etish haqida e'lon qildi. 2019-yil 20-fevral kuni "Prezident maktablarini tashkil etish to'g'risida"gi qarorni imzoladi. 2019-yil sentabr oyidan boshlab esa Toshkent, Nukus va Xiva shaharlarida dastlabki prezident maktablari tashkil qilinib, o'z faoliyatini boshladi. Ushbu maktablarni tashkil qilishdan maqsad bu- iqtidorli yoshlarni aniqlash, ularni qo'llab-quvvatlash, o'zbek yoshlarini ham jahon miqiyosidagi ilm bilan ta'minlash va buning natijasida O'zbekiston nomini dunyoga tanitish, yurtimiz kelajagini ta'minlaydigan inson kapitalini yaratishdir.

Adabiyotlar tahlili

Ssientizm va antissientizm masalasi ko'plab falsafiy asarlarda va ilmiy tadqiqotlarda keng yoritilgan. Turli mualliflar bu ikki yo'nalishga har xil yondashuvlar bilan qaragan. Fan va falsafa taraqqiyoti ssientizmning inson tafakkurining eng oliy yuksak bosqichi ya'ni fan orqali haqiqatga yetish yo'li sifatida talqin qilinishi N.Shermuxamedov "Falsafa" asarida . Boshqa olimlar buni aksini antissientik qarashlarni ilgari surishadi. Ularning fikricha, ilm-fanning haddan tashqari ustuvorligi insoniyatni ma'naviy jihatdan zaiflashtiradi haqida A.D.Raxmatov, R.F.Yunusov "Ilmiy tadqiqot asoslari". Adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, sientizm va antissientizm o'rtasidagi bahs bir yoqlama emas -har ikki qarash o'ziga xos haqiqatga ega. Ilm-fan taraqqiyotsiz jamiyat rivojlana olmaydi, biroq fan ma'naviyatdan uzilib qolsa, inson o'z mohiyatini yo'qotadi. Shu bois, ko'plab mualliflar bu ikki yo'nalish o'rtasida muvozanatni topish zarurligini alohida ta'kidlashadi.

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur maqolada sientizm va antissientizm yo'nalishlarining mohiyati, ularning falsafiy asoslari hamda zamonaviy jamiyatdagi o'zaro ta'siri tahlil qilindi. Tadqiqot

nazariy xarakterga ega bo'lib, unda analitik, taqqoslash va tizimli yondashuv metodlaridan foydalanildi. Avvalo, sientizm va antissientizm tushunchalarining shakllanishi, ularning tarixiy ildizlari va falsafiy rivojlanish bosqichlari o'rganildi. Bu jarayonda turli manbalardagi qarashlar solishtirilib, ularning o'xshash va farqli jihatlari aniqlab chiqildi. Analitik metod yordamida olimlarning fan va ma'naviyat o'rtasidagi muvozanat haqidagi fikrlari tahlil qilindi, ularning zamonaviy davrga ta'siri baholandi. Tizimli yondashuv orqali esa sientizm va antissientizm g'oyalarining jamiyatlardagi roli yaxlit holda ko'rib chiqildi - ularning ta'lim, madaniyat va ijtimoiy hayotdagi ifodasi tahlil qilindi. Shuningdek, tadqiqotda hozirgi davrda texnologik rivojlanish bilan birga paydo bo'layotgan ma'naviy muammolar misol sifatida o'rganildi. Tadqiqotning metodologik asosini zamonaviy falsafiy adabiyotlar, ilmiy maqolalar va g'oyaviy tahlillar tashkil etadi. Maqola muallifi sientizm va antissientizm o'rtasidagi ziddiyatni bir tomonlama emas, balki integrativ va muvozanatli yondashuv asosida tahlil etishni maqsad qilgan.

Natijalar va ularning tahlili

Insoniyat ilm orqali juda katta yutuqlarga erishdi, ammo shu bilan birga yangi savollar ham paydo bo'ldi. Ana shu holat ssientizm va antissientizm deb ataladigan ikki yo'nalishning to'qnashuviga sabab bo'lmoqda. Fan va falsafaning roliga baho berishda ayrim qarama-qarshiliklar mavjud. Xususan, ba'zi bir ilmiy va falsafiy davralarda fanning roli va ahamiyatini mutlaqlashtiruvchi yondashuv mavjud bo'lib, u "ijobiy", "foydali" bilim sifatida fanni "mavhum" va "tajribaga asoslanmagan" falsafaga qarshi qo'yadi. Bunday qarashlar ssientistik deb, nazariy tafakkur yo'nalishi esa - ssientizm (lot. scientia va ingl. science — fan, bilim) deb ataladi. Ssientizm - madaniyat tizimida, jamiyat hayotida fan rolini mutlaqlashtirish[3]. Ssientizm tarafdorlari ilmni eng ishonchli yo'l deb biladilar. Ularning fikricha, insoniyat faqat ilmiy yondashuv orqali barcha muammolarini hal qila oladi. Masalan, insoniyatning barcha muammolari-iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy yoki ruhiy bo'lishidan qat'iy nazar uni ilm orqali hal qilsa bo'ladi deb o'ylashadi, yana ularning fikricha texnika, kommunikatsiya sohalaridagi

taraqqiyot bular ssientizmning natijasidir. Bu yo'nalish asosan XIX va XX asrlarda juda rivojlangan. SSientizm tarafdorlari fikricha:

Haqiqiy bilim faqat ilmiy metodlar orqali olinadi. Diniy, falsafiy yoki badiiy bilimlar ilmiy dalillarga asoslanmagani uchun ishonchli emas. Inson hayotidagi barcha masalalarni (axloq, siyosat, ma'naviyat, hatto san'atni ham) ilmiy yo'l bilan tushuntirish va boshqarish mumkin. Misol: "Agar nimanidir o'lchab, kuzatib yoki tajriba orqali isbotlab bo'lmas ekan, demak u haqiqat emas." — bu ssientistik qarashdir. SSientizmning afzalliklari:

- Ilm-fanning rivojiga turtki beradi;
- Tanqidiy fikrlash va dalillarga asoslanishni kuchaytiradi.

Uning kamchiliklari esa:

- Ma'naviyat, axloq, san'at kabi sohalarni e'tibordan chetda qoldiradi.

Insonning ichki dunyosini, his-tuyg'ularini ilm orqali to'liq tushuntirib bo'lmaydi. Yillar o'tib esa insonlar har doim ham hamma narsani ilm bilan o'zgartira olmasligini tushundi. Shu vaqtda insonlarda ma'naviy inqirozlarr, tushkinliklar kabi muammolar paydo bo'la boshladi va shu lahzada ssientistlarga qarshi yo'nalish-antissientizm shakllana boshladi

Antissientizm - fanning jamiyat hayotidagi roli va ahamiyatini salbiy baholaydigan falsafiy nuqtai nazar[4]. Ularningcha, fan har narsani tushuntira olmaydi. Ilmiy rivojlanish ba'zan insoniy qadriyatlar, axloq, tabiat muvozanatini buzadi. Masalan, ekologik muammolar, odamlarning ruhiy bosimi, yolg'izlik — bular haddan tashqari texnik taraqqiyotning oqibatlaridir. Antissientizmga ko'ra:

- Ilm-fan muhim, lekin u inson hayotining yagona yo'l boshchisi bo'lolmaydi;
- Axloq, san'at, din, falsafa ham insonni to'liq anglash uchun zarur.

-Ilmiy yutuqlar ba'zida insoniyatga zarar keltirishi ham mumkin (masalan, qurollar, atom bombasi va boshqalar). Misol: "Ilm bizga qanday yashashni o'rgatadi, lekin nima uchun yashashni ayto olmaydi." — bu antisientistik fikrdir. Antissientizmning afzalliklari:

- Insonning ma'naviy va axloqiy tomonlarini qadrlaydi;

-Ilmiy texnologiyalarning ijtimoiy oqibatlarini tanqidiy ko'radi.

Uning kamchiliklari esa: Ba'zan ilmni inkor etish, afsonaviy yoki irrasional qarashlarni kuchaytirish xavfi bor. Antissientistlar "fan muhim, lekin u insoniylik bilan birga bo'lishi kerak" deydilar. Ular ilmga qarshi emas, faqatgina limning chegaralarini, kamchiliklarini tan oluvchi va insoniy qadriyatlarini muhim sanovchilardir. Misol uchun, bugungi kunda yoshlar keng foydalanayotgan sun'iy intellektlar insonlarni og'irini yengil qilyapti, lekin ular insonlarni mustaqil fikrlashi, tabiiyligini yo'qotmoqda. Antissientistlar shunday xavflar haqida ogohlantirmoqda.

Hozirgi dunyoda bu ikki yo'nalish o'rtasida muvozanat topish juda muhim. Ilm-fan hayotimizni yengillashtiradi, ammo ma'naviyat, axloq va ruhiyatni ham unutmasligimiz kerak. Chunki insonni faqat ilm emas, ruhiy dunyosi, mehr va qadriyatlari ham to'liq shakllantiradi.

Xulosa

Ushbu maqolada ssientizm va antissientizm yo'nalishlari zamonaviy falsafiy tafakkurdagi ikki qarama-qarshi, ammo o'zaro bog'liq konsepsiya sifatida tahlil qilindi. SSientizm tarafdorlari fan va texnologiyani insoniyat taraqqiyotining asosiy omili deb biladi, ilmiy dalillar va ratsional tafakkur orqali jamiyatni mukammal rivojga yetkazish mumkinligini ta'kidlaydi. Shu bilan birga, antissientizm fan va texnologiyaning chegaralarini tan olib, inson hayotida ma'naviy, axloqiy va ruhiy qadriyatlarning muhimligini alohida e'tirof etadi. Ularning fikricha, faqat ilm-fan yutuqlari insoniyatning to'liq farovonligini ta'minlay olmaydi, chunki insoniy qadriyatlar va ruhiy taraqqiyot ham jamiyatning barqaror rivoji uchun zarurdir. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, zamonaviy davrda fan va ma'naviyat o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash muhimdir. Integrativ yondashuv orqali ssientizm va antissientizm o'rtasidagi qarama-qarshi fikrlar uyg'unlashtirilib, ilmiy va ma'naviy qadriyatlar orasida muvozanat yaratish mumkin. Shu tarzda, insoniyat nafaqat texnologik jihatdan rivojlanadi, balki axloqiy va ruhiy jihatdan ham boyib, kompleks taraqqiyotga erishadi. Xulosa qilib aytganda, sientizm va antissientizm o'rtasidagi to'qnashuv inson tafakkurining tabiiy jarayoni bo'lib, zamonaviy jamiyatning barqaror

rivoji uchun ularni integrativ va muvozanatli tarzda birlashtirish zarurdir. Bu yondashuv ilm-fan yutuqlari bilan ma'naviy qadriyatlarni uyg'unlashtirgan holda insoniyatning kompleks rivojlanishiga xizmat qiladi. Xulosa qilib aytganda, ssientizm bu- ilm kuchiga ishonch, antissientizm esa ilm bilan bir qator inson faziyatlarini asrash demakdir. Ssientizm va antisentizm o'rtasidagi kurash - bu aslida insonning o'zini anglash, ilm bilan ma'naviyatni uyg'unlashtirish yo'lidagi izlanishdir. Haqiqiy taraqqiyot - shu ikki kuch o'rtasidagi muvozanatda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Юртимизнинг ҳар бир ҳудудида Президент мактаблари ташкил этилади
<https://share.google/WSGG4V7V3ia2OXJr4>
2. Президент мактабларини ташкил этиш чора-тадбирлари тўғрисида
<https://share.google/YNxtyzXIKTSgzu2WR>
3. N.Shermuxamedov “Falsafa” . Toshkent-2020
4. A. Qambarov, I. Arzimatova “Falsafa” . Toshkent-2022
5. A.D.Raxmatov, R.F.Yunusov “ Ilmiy tadqiqot asoslari” Toshkent – 2008
6. N.Shermuxamedov “ Ilmiy tadqiqot metodologiyasi” Toshkent “ Innovatsiya – ziyo 2020